



UO'K: 811.512.133

## LIRIK MATNDA TAGMA'NO VA IMPLIKATIV PARADIGMA

## ПОДТЕКСТ И ИМПЛИКАТИВНАЯ ПАРАДИГМА В ЛИРИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ

## SUBTEXT AND IMPLICATIVE PARADIGM IN A LYRICAL TEXT

Gaziyeva Maftuna Muhammadovna 

Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrası dotsenti, f.f.d. (DSc)

**Annotatsiya**

Maqolada pragmalıngvıstıkanıng o'rganısh obyektıga kiruvchi implıkatıv bırlıklar xususıda fıkr yurıtıladı. Shunıngdek, badiiy matnda tagma'nonıng qo'llanılıshı lısonıy dalıllar orqalı tahlılga tortıladı. Ham nazmiy, ham nasriy matnlarda qo'llanıluvchi implıtsıt hodısalar tadqıqıga alohıda e'tıbor berıladı.

**Abstract**

The article discusses implicative units that are part of the object of study of pragmalıngvıstıcs. Also, the use of subtext in the literary text is analyzed through lınguıstıc evıdence. Partıcular attentıon is paid to the study of implıcit phenomena used in both poetıc and prose texts.

**Аннотация**

В статье рассматриваются импликативные единицы, входящие в объект изучения прагмалингвıstıkı. Кроме того, использование подтекста в художественном тексте анализируется с помощью языковых доказательств. Особое внимание уделяется исследованию имплицитных явлений, используемых как в поэтических, так и в прозаических текстах.

**Kalit so'zlar:** badiiy matn, tagma'no, yashirin ma'no, lirik matn, eksplitsit, implitsit, eksplitsitlik, implitsitlik.

**Key words:** artistic text, subtext, hidden meaning, lyrical text, explicit, implicit, explicit, implicit.

**Ключевые слова:** художественный текст, подтекст, скрытый смысл, лирический текст, эксплицит, имплицит, эксплицитность, имплицитность.

**KIRISH**

Matn shakllanish bosqichidayoq, qaysidir uslubga xoslangan bo'ladi, ijodkor badiiy tafakkuridagi fikrlar ba'zida oddiy nasrda, ba'zida she'riy misralarda namoyon bo'ladi. Muallif o'z fikrlarini poetik ifoda vositalari bilan tasvirlar ekan, poeziya tili muallif aytmoqchi bo'lgan g'oya yoki fikrni she'riy misralarning ichki va tashqi qismlariga joylashtiradi. Muallif leksik yoki boshqa barcha lisoniy vositalar orqali aytmoqchi bo'lgan asosiy fikrga urg'u beradi. Misra tarkibidagi birgina so'zning urg'uga asoslangan ifodasi orqali muallif tinglovchiga o'zida falsafiy mushohada yukini olgan implikativ fikrlarini taqdim qiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Lirik matnlarda fikrni tagma'no orqali ifodalash matnning real semantik qurilishiga bog'liq bo'lib, so'zning poetik ma'nosi tagma'noga asoslangan kontekstni shakllantirishga xizmat qiladi. She'riy matnlarda tagma'noning qo'llanishi, unga xos bo'lgan xususiyatlar to'g'risida L.Y.Ginzburg[1, 357], I.Y.Mostovskaya[2], A.F.Losev[3], L.A.Novikov[4] kabi tilshunoslar o'z asarlarida alohida to'xtaladilar. Ularning tadqiqotlariga ko'ra nasrga nisbatan nazmiy matnlarda tagma'no ko'p qo'llanadi. Jumladan, L.Y.Ginzburg tagma'no to'g'risida so'z borganida she'riy misralarga asoslangan matnlarda aynan tagma'no to'g'risida emas, balki so'zning poetik ma'nosini aniqlashga xizmat qiladigan hamda ijodkorning kommunikativ niyatini ochishga yo'naltirilgan kontekst va lirik matnning real semantik qurilishi haqida gapirish ma'qulroq bo'ladi, degan tezisini o'rtaga tashlaydi. Lirik xarakterdagi matnlarning mazmuniy sathiga nisbatan bunday fikrlar I.Y.Mostovskaya qarashlarida ham ko'zga tashlanadi. U o'zining shu sohadagi izlanishlarida boshqa tadqiqotchilarga nisbatan implikatsiya va tagma'no tushunchalarini qat'iyroq hamda aniqroq izohlashga harakat qiladi. Lirik matnlardagi turlicha konnotatsiyalarga asoslangan

## TILSHUNOSLIK

assotsiativ munosabatlar matn tarkibida mazmuniy notenglikni yuzaga keltiradi. Olim bunday tipdagi matnlarda tagma'noga nisbatan implikasiya belgilari kuchliroq bo'lishini ta'kidlaydi[5, 43-44]. Haqiqatan ham ijodkor adresant sifatida badiiy tafakkuridagi fikrlarni misralar mazmuniga singdirar ekan, ularning aksariyati implikativ xarakter kasb etadi. Implikativlik hodisasi birgina tagma'noda emas, balki quyi mazmuniy sathga oid bo'lgan barcha implikativ birliklarda fikrning yashirin ifodalanishi ko'zga tashlanib turadi. She'riy misralar borliqdagi voqea va hodisalarni referent hodisa sifatida izohlaydi. Bunday tipdagi kontekstlarda nominativlik belgisi ustuvor bo'lib, u matn propozitsiyasini ifodalash bilan birga quyi mazmuniy sathdagi yashirin fikrlar davomiyligiga ishora qiladi. Har bir misra va uning tarkibidagi implikativ fikrlar kommunikantlar tomonidan assotsiatsiya qilish orqali anglab olinadi.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Lirik matnlardagi implitsitlashgan fikrlarni farqlash, ularga xos bo'lgan har bir belgi va xususiyatni ko'rsatish, tilning implitsit strukturasi nutqning funksional turlarida va matnning barcha uslubiy-funksional ko'rinishlarida har xil darajada tasvirlanishiga e'tibor qaratish muhimdir. Jumladan, biz ham nasr va nazmga asoslangan matnlarda ijodkor konseptual olamidagi fikrlarning lisoniy ifodasida o'zaro zidlanuvchi eksplitsit va implitsit mazmunni farqlashga harakat qilamiz. Xususan, lirik janrlarga xos matnlarning mazmuniy mundariyasi ham propozitiv, ham implikativ xususiyatga ega bo'lib, ular ifoda planida proza tiliga nisbatan keskin farqlanadi. She'riy misralar orqali ifodalangan fikrlarni mazmuniy sath birliklari tarkibiga singdirish, ayrim fikrlarni propozitiv strukturada oshkora ifodalash mumkin bo'lmaganligi uchun ham ularni kitobxon idrok qilishi mumkin bo'lgan darajada implitsitlashtirish, boshqa nozik fikrlarni mazmuniy sathning tubida ifodalash va poetiklashtirish muallifning o'ziga xos poetik mahoratini belgilaydi.

Masalan, Erkin Vohidov *Qalbga istarsan shifo gar, bo'l yomon so'zdan yiroq* misrasida yomon so'zni aytishdan saqlan, agar yaxshi so'z topolmasang, hech bo'lmaganda *kar va lol bo'lmoq kerak* kabi fikrni implitsitlashtiradi. Xuddi shunday fikr Shavkat Rahmonda ham ko'zga tashlanadi.

***Ko'zingni yum,  
quloqni berkit –  
kunduzdan-da yorug'dir yo'ling.  
Bir kun kelib alqaru seni  
yuksaklarga ko'tarar ko'rlik.***

Misralarda ta'kidlangan *ko'zingni yum – ko'rlikka, quloqni berkit – karlikka* teng bo'lib, bunday propozitiv fikrlar orqali tashqi dunyoda bo'layotgan yomonliklarni eshitmaslik, ko'rmaslik va ularni lol, soqov kabi gapirmaslikni alohida ta'kidlaydi. Shundagina inson tinch va xotirjam yashashi to'g'risida so'z boradi. She'riy matnlar adresatlar tomonidan xohlagancha talqin qilinishi mumkin. Bu ularning umumiy bilim fondlari bilan bog'liq.

She'riy asar yoki matnlar mazmuniy sathida implikasiya va tagma'no hodisalarining o'ziga xos o'rni mavjud bo'lib, ular propozitiv mazmuniy sathdan farqlanadi. Ular o'z ifoda shakllariga ega bo'lib, bu ifoda shakllari implikativ birliklarda lisoniy qiymat bilan belgilanadi. Biroq tagma'no hodisasi esa kontekstual hodisa sifatida matn mazmunini ifodalovchi vositalar ta'sirida yuzaga chiqadi. Eksplitsit va implitsit ifoda vositalari tagma'no uchun ifoda vositasi sanalmaydi. Bu vositalar tagma'no hodisasi uchun real verbal maqomga ega bo'lmaydi. Fikrning poetik ifodasi matnning mazmuniy strukturasi rang-barang bo'lishiga olib keladi. Shoir ijodiy tafakkurida so'zning poetik obrazi turlicha assotsiatsiyalar bilan namoyon bo'ladi. Ijodkor tafakkurida badiiy ottenka bilan to'yingan va konnotativ qiymatga ega bo'lgan so'zning poetik imkoniyatlari kengayadi. She'riy kontekstda poetik funksiya bajaradigan so'z nominativ xususiyatlarini to'liq saqlagan holda she'riy janrga xos konnotativ qiymatga ega bo'ladi. Natijada so'z ijodkor tafakkurida turlicha poetik assotsiatsiyalar bilan to'yinib, muallifning implikativ munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Muallif tafakkuridagi olamning konseptual manzarasi implikatsion belgilar tizimiga aylanadi. She'riy matnlarda tagma'no shakliga nisbatan implikasiya birlamchi pozitsiyani egallaydi. Bunda fikrlarning implikativ belgilari kuchayadi. Tagma'no belgilari esa susayadi. Bunday holatlarda tagma'no poetik kinoya, kesatq natijasi sifatida ko'zga tashlanadi. Masalan,

***Men do'zaxdan ming martaba dahshatli bo'lgan  
Hodisalar va kunlarni ko'rganman avval.***

*Men shaytondan ming martaba dahshatli bo'lgan*

*Olchoqlarni ko'rib, chidab turganman avval.*

*Lekin, ayting, qayoqda u oliy haqiqat?*

*Ketayotib faqat shuni bilmoq istayman.* (A.Oripov)

A.F.Losevning ta'kidlashicha, "...poetik matnlarda ma'no va obrazlar o'rtasidagi bog'lanishlar metaforik shakllar o'xshashligi yoki metanomik, aniqrog'i sinekdoxik shakllar uyg'unligi kabi tamoyillariga asoslanadi, tagma'no tavsifi esa ichki fikrlarni nometaforik, nokontrastiv zidlanishi sifatida namoyon bo'ladi" [3, 385].

L.A.Novikovning fikriga ko'ra, "...har qanday matn o'z tagma'nosiga ega bo'ladi. Biroq ularning ifodalanish va shakllanish asoslari, ildizlari hamda ifoda vositalari janr, uslub va boshqa belgilariga ko'ra o'zaro farqlanadi". Har qanday badiiy matnda bo'lgani singari lirik matnda ham "...kitobxon va tadqiqotchilarning idrok transformatsiyasi yillar davomida o'zgarib boradi. Tadqiqotchi va kitobxonning individual o'ziga xosligi, ularning tafakkurida yillar davomida shakllangan turlicha ijtimoiy va madaniy sharoitlar idrok transformatsiyasining asosi hisoblanadi" [4, 20]. She'riy matnlarning idrok transformatsiyasi mazmuniy strukturadagi propozitsiyani ham va tagma'noga ishorani ham ifodalashga xizmat qiladi. Propozitsiya va u orqali ifodalangan tagma'no parallel tarzda anglanadi. Yuqori va quyi mazmuniy sath hamda har ikki strukturadagi fikrlar ham eksplitsit, ham implitsit qiymatga ega bo'ladi. Masalan,

*Shundoq dedi, qulluq qilib,*

*Gapni qo'yib joyiga*

*Yangi zamon Shum bolasi*

*Yangi zamon Boyiga:*

*Shart emas Shum bola bo'lish,*

*Yolg'on bu kun osondir.*

*Gazet to'la, kitob to'la,*

*Majlis to'la yolg'onidir.*

*Bitta yig'in – Kotibiyat,*

*Bitta yig'in – Rayosat.*

*Yolg'on endi davlat ishi,*

*Yolg'on endi Siyosat* (E.Vohidov. "Shum bola").

Badiiy matnning eng asosiy jihati uning g'oyasi bilan belgilanadi. G'oya esa verbal vositalar ifodasiga asoslangan mazmunda ko'zga tashlanadi. Badiiy matn mazmuni esa muallif fikrlari asosida shakllantiriladi. Muallif fikrlari verbal hamda noverbal vositalar orqali ifodalanadi. Badiiy matn qaysi janrga taalluqli bo'lishidan qat'iy nazar muallif asardagi asosiy g'oyani uning mazmuniga singdiradi. Muallif aytmoqchi bo'lgan g'oya undagi fikrlarda o'z ifodasini topadi. Bu esa muallifning aytilayotgan fikrlarga, sodir bo'layotgan voqealarga va o'zi tasvirlayotgan badiiy ifodalarga munosabatidan boshlanadi. Muallifning borliqdagi voqealarga munosabati va bahosi orqali asarning asosiy g'oyasi yoritiladi. Muallif munosabati uning nutqida, fikrlarida, personaj yoki qahramonlarning harakatlanishida ko'zga tashlanadi. Muallifning emotsional va aksiologik munosabatidan iborat bo'lgan bunday pozitsiyasi matnda ochiqdan ochiq yoki yashirin tarzda bayon qilinadi.

Lirik matnda tagma'noning misra ortiga joylashtirilishi, mazmun va uning ifoda tarkibiga singdirilganligi interpretatorning individual poetik mahoratiga bog'liqdir. Kitobxonlik madaniyati va assotsiativ tafakkurning rivojlanganlik darajasi, misra tarkibi va ortidagi fikrlarni ajratish, muallif tasviriga xos assotsiativ kredosini ilg'ash, badiiy tasvirdagi rang-barang fikrlarni o'zaro farqlash, lirik matndagi mazmuniy strukturani butun murakkabligi va to'liqligi bilan idrok etishga yordam beradi. Kitobxon dunyoqarashining kengligi tufayli u asarning ichiga kirib boradi. Muallif badiiy tafakkurining nozik nuqtalarini ko'ra oladi. Lirik matn muallifining qarashlari har bir misra va misra ortida aks etadi. Uning his-tuyg'ulari, emotsiyasi, quvonchi, tashvishi, bahosi bor bo'yi bilan poetik misralarda tagma'no sifatida namoyon bo'ladi.

Matn muallifining emotsional bahoga asoslangan pozitsiyasi dastlab eksplitsit va implitsit usullar bilan ifodalanadi. Eksplitsit ifoda shakli fikrlar ifodasining birinchi usuli hisoblanadi. Fikrlar bayoni, voqealar tasvirining ikkinchi usuli implitsit ifodalanishdir. Keyingi paytlarda badiiy matn muallifining individual poetik uslubiga xos fikrlarni implitsit usullar bilan ifodalanishini o'rganishga

## TILSHUNOSLIK

qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Badiiy matnda fikrlarni implitsitlashtirish turli usul va uslublar bilan amalga oshiriladi. Kitobxon o'quvchi sifatida muallif, personaj va qahramonlar nutqini assotsiatsiya qilish jarayonida mazmunga hamohang tarzda mushohada va mulohaza qilishni boshlaydilar. Muayyan millatga mansub bo'lgan so'z san'atkorlari qanchalik mahoratli bo'lsa, ularning muxlislari badiiy asar mualliflarining teran mushohadalaridan bahramand bo'ladi. Badiiy matnda muallif tomonidan urg'u berilgan va alohida ta'kid olgan fikrlar kitobxonlar tomonidan aql tarozisida o'lchanadi. Badiiy va poetik libosga o'rab berilgan hamda badiiy matn muallifiga xos adabiy kompetensiya talablariga mos tarzda tasvirlangan fikrlar tinglovchilarni chuqur o'yga toldiradi, taajjublantiradi. Ularga badiiy-estetik jihatdan ta'sir ko'rsatadi. Aqlli kitobxonlar badiiy va poetik jihatdan noshudlik bilan ifodalangan fikrlardan ranjiydilar. Bu haqda taniqli adabiyotshunos olim V.I.Ivasheva shunday yozadi: poetik tasvir uchun "...yozuvchi aqlli kitobxonlarni hisobga olishi kerak, bu jarayonda hatto kitobxon tinglovchi sifatida ketma-ketlikda va tizimli tarzda berilgan mantiqiy misralardagi implitsit fikrlarni ishoralar ("подсказка")siz tushunishi kerak" [6, 179]. Albatta, har qanday badiiy matnda drammatik asarlarda bo'lgani singari (suflyor) muallif ayrim implitsit fikrlar orqali kitobxon yoki tinglovchiga nimanidir sezdirmay aytib turadi, ayrim narsalarni eslatadi. Badiiy matn tarkibida verbal maqomga ega bo'lmagan implitsit fikrlarni o'quvchi ilg'ab olishi kerak. Muallif matnda mana shunday yashirin tarzda berilgan fikrlarga ishora qilib ketadi. Kommunikantlar yashirilgan ishoralarni anglab olishi kerak bo'ladi. Aslida fikrning implitsitlashishi degani muayyan millatga mansub til egalari yoki ijodkorning qaysidir fikrni lisoniy birliklar mazmuniga singdirishidir.

Fikrlar implikatsiyasi bilan implikatsiyalanayotgan tagma'noni farqlash kerak. Har bir fikr implikatsiyalangan mohiyatga ega bo'lishi mumkin. Biroq implikatsiya shaklidagi tagma'no esa boshqa yashirin aytilgan fikrlardan farq qiladi. Bizningcha, muallif tomonidan badiiy matn mazmuni ortiga mohirlik bilan yashirilgan fikrlar yoki poetik misralar oralig'ida joylashtirilgan ko'z ilg'amas badiiy ifodalar tagma'no hisoblanadi. "Tinglovchi muallif tomonidan implitsit tarzda ifodalangan bevosita verbal vositalar bilan ko'rinmaydigan yashirin fikrlarni ilg'ab olishi kerak. Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, faqat eksplitsit yoki implitsit mazmunga asoslangan fikrlar yig'insidangina iborat bo'lgan badiiy asarning bo'lishi mumkin emas. Fikrlar ifodasiga tegishli bo'lgan har ikki tasvirda ham o'ziga xos bayon usullari mavjud bo'ladi"[6, 180]. Faqat eksplitsit yoki faqat implitsit fikrlar mazmuniga qurilgan badiiy matnlar kitobxoniga hech nima bera olmaydi. Badiiy-estetik nuqtayi nazardan tinglovchida taassurot qoldirmaydi. Shuning uchun ham har qanday poetik asar mazmuni har ikki tasvir usuli bilan mukammallashadi. Shunday bo'lsa-da, voqealar tasvirida fikrlarni eksplitsit va implitsit ifodalash usuli har bir badiiy asar muallifida o'ziga xos nutqiy individuallik kasb etadi. Shu bilan birga, badiiy matn mualliflari asarning janr xususiyatlaridan kelib chiqib, fikrlar ifodasida aniqlik, qisqalik, ixchamlik kabi qoidalarga rioya qiladilar. Bu ham fikrlarni oshkora va yashirin ifodalash usulida o'ziga xos individual mahoratni, o'ziga xos adabiy va lisoniy kompetensiyani talab qiladi. Eng muhimi, badiiy va poetik hamda estetik-pragmatik qimmatga ega bo'lgan fikrlar ifodasida bu usullardan foydalanish, poetik qimmatini yuqori bo'lgan fikrlarni matn ortiga yashirish va berkitish, ularni implitsitlashtirish asarning estetik mazmunini kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan, Erkin Vohidovning "Donishqishloq latifalari" turkumidan olingan "Matmusaning uylanishi" she'rida muallifning individual uslubiga xos tagma'no qo'llanadi.

*Safar qildi Matmusa*

*Olisdagi shaharga.*

*Ul shaharda yo'liqdi*

*Bir hur pari-paykarga...*

Poetik matnlarda fikrni quyi mazmuniy sathga joylashtirish, shu bilan birga quyi mazmuniy sathda implikatsiyalanayotgan fikrlarni propozitsiyaga aylantirish muallifga xos mohirona uslubdir. Buni tilshunoslikda deimplikatsiyalanish hodisasi deb yuritiladi. Tagma'no to'g'risida ko'p gapiramiz, u quyi mazmuniy sathga xos bo'lgan va muallif tomonidan ataylab berkitilgan fikrlar ekanligini ko'p ta'kidlaymiz. Ushbu she'riy matnda Erkin Vohidov allyuziya tipidagi tagma'noni eksplikatsiyalashtirgan. Bu hamma shoir ijodida ham ko'zga tashlanavermaydi. Tagma'no, odatda, verbal maqomga ega bo'lmaydi, deb ta'riflanadi. Biroq "Matmusaning uylanishi" haqidagi she'rida tagma'no ochiq matnga olib chiqiladi. Quyi mazmuniy sathga berkitilishi lozim bo'lgan, hech kim bilishi mumkin bo'lmagan "sirlar" muallif istagan g'oyani berish uchun verbal ifodalar bilan yuqori

mazmuniy sathga chiqariladi. She'r mazmuni bilan tanishayotgan tinglovchi satirik qahramon va ular bilan istiqomat qiluvchi qishloqdoshlarning olam haqidagi tasavvuri "bir xil" ekanligini idrok qilib turadi.

### XULOSA

Haqiqatan ham implitsitlik yoki fikrlarni yashirish, yashirilgan fikrlarni quyi mazmuniy sathda tagma'no sifatida ifodalash lingvokognitiv mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Implitsitlikning lingvokognitiv modeliga asosan ajratilgan implitsit bilim, implitsit ma'no va implitsit fikrlar o'zaro farqlanadi. Leksik usul bilan ifodalangan tagma'no implitsit ma'noni ifodalashga xizmat qiladi. U kontekstual hodisa bo'lib, bunday funksiya bajaruvchi so'z borliqdagi voqealarga muallif munosabatini ifodalovchi modus qismidir. Nutqdagi implitsit bilimlar lingvistik kuzatuvlar uchun muntazam ravishda ochiq bo'ladi. Bunday bilimlar vaziyat va kontekst yordami bilan matn tarkibi elementlarida avtomatik tarzda mavjud bo'ladi hamda ular implitsit fikrlarni hosil qiladi. Nutqiy implitsit fikrlar lisoniy implitsit ma'nolardan farqlanadi. Fikr nutq muallifiga tegishli bo'ladi. Implitsit ma'no esa lisoniy birlikka taalluqli bo'ladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гинзбург Л. Я. О лирике. – М.: Интрада, 1997. – С. 357.
2. Мостовская И. Ю. Существует ли подтекст в лирическом стихотворении? // Интерпретация художественного текста в языковом вузе: межвуз. сб. науч. тр. – Л., 1981. – С. 48-56.
3. Лосев А.Ф. Проблема символа в связи с близкими к нему литературоведческими категориями // Известия АН СССР, серия литературы и языка. – 1970. – Т. XXIX. – № 5. – С. 385.
4. Новиков Л. А. Художественный текст и его анализ. – М.: Едиториал УРСС, 2003. – С. 20.
5. Лелис Е.И. Подтекст как лингвоэстетическая категория в прозе А.П.Чехова. – Ижевск: Удмуртский университет, 2013. – С. 43-44.
6. Кухаренко В. А. Интерпретация текста. – М.: Просвещение, 1988. – С. 180.